

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

3/2021

Bosh muharrir:

Umarov Alisher Yusubjanovich

Tolipov O'tkir Qarshiyevich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Barno
Adilova Saodat
Mamadaliyev Abdumajid
Muslimov Narzulla
Nishanova Zamira
Panjiyev Qurboniyoz
Palchik Gennadiy
Safarova Roxat
Tolipova Jamila
Tulenova Karima
Tursunov Samar
To'rayev Samad
Urazova Marina
Xalilov Ruslan
Xodjayev Begzod
Shaxmurova Gulnara

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

OILA-TA'LIM MUASSASASI-MAHALLA HAMKORLIGI – SOG'LOM DUNYOQARASHGA EGA AVLODNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Rezume. Mazkur maqolada bolalarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishi uchun oilada farovon sharoitlarni ta'minlash bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimi va mahallalar faoliyatining mohiyati, mazkur sohadagi vazifalar va ish shakllari ifodalangan.

Tayanch so'zlar: *oila, ota-ona, bola, ta'lim-tarbiya, qadriyatlar, pedagogik-psixologik bilim, mahalla, huquq va manfaatlar, rivojlanish, ma'naviy tarbiya, ehtiyojlar, ijtimoiy himoy.*

Резюме. В статье раскрыта сущность деятельности специалистов системы непрерывного образования и махалли по созданию в семье благоприятных условий для воспитания и развития детей, определены задачи и формы работы специалистов непрерывного образования и махалли.

Ключевые слова: *семья, родители, ребенок, воспитание, ценности, психолого-педагогические знания, махалля, права и обязанности, развитие, духовное воспитание, потребности, социальная защита.*

Abstract. The article reveals the essence of the activities of specialists of the system of continuous education and maxalla to create favorable conditions in the family for the upbringing and development of children, defines the tasks and forms of work of specialists of continuing education and maxalla.

Key words: *family, parents, child, education, values, psychological and pedagogical knowledge, maxalla, rights and responsibilities, development, spiritual education, needs, social protection.*



D.A. MADJIDOVA*

Mamlakatimizda yosh avlodning ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishida oilaning roli, ota-onaning farzandi oldidagi burchlariga doimo alohida ahamiyat berilgan bo'lib, buni quyidagi fikrlar orqali ta'kidlash mumkin: "Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi.

Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy muhit maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi. O'zbek oilasi mustabidlik zamonida o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi. Ulug' adibimiz Ablulla Qodiriy qahramonlaridan birining: «Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas», deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafasi mujassam¹. Bu yo'q joydan paydo bo'lgan gap emas. Ota-onaning farzandi oldidagi burchlari, ularning oxiratin obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli oqsoqollardan so'rasangiz ular darhol lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilmi, kasbli-hunarli qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish. Bugungi kunda ana shunday olijanob an'analar qaytadan mujassam qaror topishi va rivojlanishi uchun jamiyatimizda va mahallalarda qulay muhit yaratildi. Bu shubhasiz, biz ota-onalar, buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz uchun juda katta vazifalar va mas'uliyat yuklaydi². Yuqoridagi fikrlardan oila manfaatlar davlat himoyasida ekanligini va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Har qanday jamiyat va davlatning asosiy vazifalaridan biri oila va bolalarni ijtimoiy himoyalashdir. Oila va bolalarning ushbu huquqlari xalqaro hujjatlarda (BMTning "Bola huquqlari to'g'risida" Konvensiyasi), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida bolaning quyidagi huquqlari asosiy va mustaqil sifatida ajralib turadi: oilada yashash va tarbiyalanish

* **Маджидова Дилдора Абдухамидовна**, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), катта илмий ходим, ЎзПФТИТИ бўлим мудири. **E-mail:** dildora26@mail.ru

¹ <http://library.ziyouet.uz/ru/book/2281>

² <http://library.ziyouet.uz/ru/book/2281>

huquqi, ota-ona va boshqa qarindoshlar bilan muloqot qilish huquqi, o'zini himoya qilish huquqi, ism, familiya va otasining ismiga ega bo'lish huquqi³.

Ilmiy, pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili oilaviy ta'lim-tarbiyaga har doim ham katta ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda oila mustahkamligi, bolalar tarbiyasiga turli tarixiy davrlarda jiddiy e'tibor berilgan. Hozirgi ilmiy tadqiqotlarda bolaning ruhiy va jismoniy tarbiyasi, sog'lom dunyoqarashini shakllantirishga oilaning ta'siri ta'kidlanayotgan bir paytda bunday tarbiya islom ilmida ilk davridayoq e'tirof etilgan va asosiy ravishda bayon qilingan.

Islomda bolani mumkin qadar o'z onasi emizishi lozimdir, deb ko'rsatiladi. Chunki bola ona suti orqali ham ruhiy, ham biologik oziqa oladi. Yangi tug'ilgan go'dak jismi va ruhining o'sishiga onasining sutidan afzal ozuqa yo'q. Bolaning suyagi onaning suti bilan shakllanadi, shuningdek, uning boshqa taraflari, ruhiy rivojlanishiga ham ona suti zarur ozuqa hisoblanadi.

Islom ilmida ota-onalar qo'lida bolalar aziz omonatdirlar, shuning uchun ulami go'zal tarbiya etmoq, yaxshi xulqlariga o'rgatmoq va ko'rkam odatlarni tushuntirmoq lozimligi uqitiriladi.

Buyuk mutaffakkir Abdulla Avloniyning ijtimoiy va pedagogik asarlarida axloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib, uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar, shaxslararo munosabat g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ta'kidlar ekan, «Qush uyasida ko'rganini qiladur», deydi. «Inson javhari qobildir. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar...». Olim oilaning bola tarbiyasidagi rolini birlamchi ekanligini ta'kidlab: "...tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim", deydi⁴.

Ushbu keltirilgan fikrlar va Islom dinidagi boshqa ko'pgina dalillar oilada bola ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lib, bola tarbiyasi oilaning eng zarur majburiyatlaridan biri ekanligiga shak-shubha qoldirmaydi. Shuning uchun ham har bir ota-ona o'z farzandining tarbiyasi uchun mas'ul ekanligini unutmazlik darkor.

Darhaqiqat, bolani tarbiyalash, unda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish – oilaning baxt-saodatiga, jamiyatning baxtli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarga ko'p e'tibor berishni talab etadi. Bolalarni jismonan sog'lom, aqlli, jamiyatga, odamlarga xizmat qilishidan shodlanadigan qilib tarbiyalagan ota-onalar o'z vazifalarini to'la-to'kis bajargan bo'ladilar.

Lekin, doimo shunday bo'lavermaydi. Oilaviy munosabatlarning o'zgarishi, ota va ona har birining oila boshlig'i sifatida sezishi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. Salbiy oqibatlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada, bola ota-ona nazoratidan chetda qoladi. Bunga asosiy sabablardan biri ota-onalarning oilaviy munosabatlari, bola ehtiyojlari va rivojlanishi kabi muhim masalalardan xabardor bo'lmasliklari hisoblanadi.

Bugungi kunda mazkur muammolarni hal etishda uzluksiz ta'lim tizimining pedagog, psixolog, ijtimoiy ish xodimlari hamda mahalla faollarning asosiy vazifalaridan biri ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda mutaxassislarning ota-onalar bilan ishlash asosiy shakllari:

oila hayotiy sharoitlarini o'rganish;

oiladagi o'zaro munosabatlar, jumladan, ota-ona – bola munosabatlari va bolalarga nisbatan ota-onalik hislarini o'rganish;

oiladagi muammolarni o'rganish va hal qilish maqsadida suhbatlar o'tkazish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

³ Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. 30.04.1998: <https://lex.uz/docs/104720>

⁴ Раҳимова К.Х. Болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш учун уйинлар: Уқув методик қўлланма. – Фарқона, 2006.

Uzluksiz ta'lim tizimi pedagog, psixologlari hamda mahalla faollarining oila va bolalar bilan ishlashda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq:

– oila bilan tushuntirish ishlarini olib borish: yuzaga kelgan muammoli vaziyatning kelib chiqish sababini tushuntirish va bu kabi muammoli vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlab, tushuntirish;

– oilaning moddiy qiyinchiliklarini hal etish maqsadida yordam ko'rsatish va rag'batlantirish;

– oilaga bola ta'lim-tarbiyasi, rivojlanishi, sog'lig'ini saqlash masalalarida ko'maklashish;

– ota-onalar, tarbiyachilarga ijtimoiy-iqtisodiy, meyoriy-huquqiy, pedagogik-psixologik va boshqa masalalar bo'yicha axborot-maslahatli yordam ko'rsatish;

oilalar bilan ishlashda meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida ish ko'rish, o'z kasbi professiogrammasiga amal qilish, vujudga kelgan vazifalarni hal qilish, aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida professional bartaraf etish va boshqalar.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirishda quyidagilar alohida ahamiyatga egaligi ma'lum bo'lmoqda:

ota-onalarning farzand ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlarini oshirish maqsadida bolalarning tarbiyasi, rivojlanishi va ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda ota-onalar uchun ta'lim tizimini takomillashtirish va uning ochiqligini ta'minlash;

oilaning jamiyatga moslashuvidagi ishtirokni qo'llab-quvvatlash;

oila va bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyotini optimallashtirish maqsadida o'z-o'zini boshqarish organlari, ijtimoiy himoya tizimi mutaxassislari, ta'lim-tarbiya muassasalari pedagogik jamoasi bilan davriy seminar-trening, davra suhbatlarini o'tkazib borish hamda ularni ilmiy-uslubiy materiallar, nashr ishlari bilan ta'minlash.

Barcha yuqorida belgilangan ish jarayonlarini amalga oshirishda nafaqat ijtimoiy ishchi, balki o'z-o'zini boshqarish organlari xodimlari, ichki ishlar, aholi bandligi va ijtimoiy himoya tizimi mutaxassislari, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya muassasalari pedagog, psixolog, defektolog va boshqa soha mutaxassislarning oila bilan hamkorlikda ishlari orqali jamiyatga ijtimoiy moslashuv muammolarini hal qilish amalga oshadi.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, oila va bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvini ta'minlashda mahalla faollari va pedagog, psixolog, ijtimoiy ishchilarning mavqelari ortib bormoqda. Chunki oila ijtimoiylashuvning asosiy instituti bo'lib, unda bola ijtimoiy bilim, axloqiy ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Bunda har bir oila bilan uning ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, diniy, huquqiy va boshqa xususiyatlari va jihatlarini hisobga olish zarur. Ayniqsa, oilada muammoli vaziyatlarni aniqlash davomida oilaning har bir a'zosining kuchli tomonlarini ham aniqlash va oila bilan ishlash rejasini ishlab chiqishda ularning kuchli tomonlariga urg'u berish ish samaradorligini oshiradi, shuningdek, oila a'zolarida o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishga imkon beradi.

Ya'ni, mijoz bilan ish olib borayotgan pedagoglar, mahalla mutaxassislari va ijtimoiy ish xodimi oilaga maslahatli, axborot, tashkiliy yordam ko'rsatish bilan birga oila a'zolarining og'ir hayotiy vaziyatdan chiqish yo'llarini mustaqil izlashlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishi muhim hisoblanadi.